UXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12 Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XAYRULLOYEVA GULASAL FAYZULLO QIZI

O‘ZBEK TILIDA MODALLIKNI IFODALASHNING SEMANTIK-PRAGMATIK ASOSLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 811.512.133ˈ367.625

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Xayrulloyeva Gulasal Fayzullo qizi
O‘zbek tilida modallikni ifodalashning semantik-pragmatik asoslari.....3

Хайруллоева Гуласал Файзулло кизи
Семантико-прагматические основы выражения модальности в узбекском языке.....23

Gulasal Fayzullo qizi Xayrullayeva
Semantic and Pragmatic Foundations of Expressing Modality in the Uzbek Language.....47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 51

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12 Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XAYRULLOYEVA GULASAL FAYZULLO QIZI

O‘ZBEK TILIDA MODALLIKNI IFODALASHNING SEMANTIK-PRAGMATIK ASOSLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Fil6985 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Julian David Rentzsch** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Muxammedova Saodat Xudoyberdiyevna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Boymirzayeva Saodat Urakovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026- yil “ 3 ” dekabr soat 12:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “ 19 ” noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “ 19 ” noyabr dagi 48 -raqamli reyestr bayonnomasi).

B.E.Kilichev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Xojiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.H.Davlatova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kech globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jad va madaniyatlararo muloqotning kengayishi tilning faqat nominativ vazifasinigina emas, balki uning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini ham chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda. Inson tafakkuri, nutqiy faoliyati va muloqot jarayonida yuzaga keladigan subyektiv munosabatlarning til vositasida ifodalanishi masalasi zamonaviy tilshunoslikda muhim tadqiqot muammosi sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, nutqda so‘zlovchining munosabati, bahosi, ishonchi, ehtimoli, majburiyati yoki istagini ifodalovchi modallik kategoriyasi til va nutq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois modallikni semantik va pragmatik jihatdan tadqiq etish bugungi tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlarida alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahon tilshunosligida modallik kategoriyasini o‘rganish masalalari funksional grammatika, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika va diskurs tahlili doirasida izchil rivojlanib kelmoqda. Xususan, modal ma’nolarning ifodalanish vositalari, ularning nutqiy vaziyat bilan bog‘liqligi, kommunikativ niyatni yuzaga chiqarishdagi roli ko‘plab tadqiqotlarda tahlil qilingan. Shunga qaramay, modallikning milliy tilga xos semantik-pragmatik xususiyatlarini tizimli ravishda yoritish, ayniqsa, turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili materiallari asosida kompleks tadqiq etish masalasi yetarli darajada o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Bu esa mazkur yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbek tilida modallikni ifodalovchi vositalar – modal fe’llar, yuklamalar, ravishlar, modal so‘zlar, intonatsiya hamda sintaktik konstruksiyalar tarixan shakllangan bo‘lib, ular nutqda so‘zlovchining subyektiv munosabatini ifodalashda faol qo‘llanadi. Mazkur vositalar nafaqat grammatik-semantik birlik sifatida, balki muayyan nutqiy vaziyatda pragmatik ma’no yuklovchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Modallik birliklarining nutqiy ta’sirchanlikni oshirish, baholash va munosabat bildirish funksiyalari ularning pragmatik salohiyatini yanada kuchaytiradi. Shu jihatdan modallikni faqat formal-grammatik doirada emas, balki semantik-pragmatik yondashuv asosida o‘rganish ilmiy jihatdan zarur hisoblanadi. “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”[1] Shu nuqtayi nazardan, modallik kategoriyasining semantik-pragmatik xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligini yangi ilmiy natijalar bilan boyitishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni// 2019-yil 21-oktabr. Manba: https://lex.uz/docs/4561730

2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2020-yil 29-yanvardagi 40-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga 2022-yil 12-dekabrdagi Murojaatnomasi, shuningdek, boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiyaning ilmiy natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida modallik kategoriyasining nazariy asoslari qadimgi davrlardanoq falsafa va mantiq ilmi bilan bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, uning dastlabki talqinlari Aristotel qarashlarida uchraydi. Keyinchalik modallikning semantik, grammatik va funksional xususiyatlari Sh. Balli, F.R. Palmer, Peter Eisenberg, R. Dietrich, Elisabeth Leiss, Julian Rentzsch, Johan van der Auwera, Vladimir A. Plungian kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan[2].

Rus tilshunosligida modallik kategoriyasi grammatik, sintaktik, semantik va pragmatik yo‘nalishlarda atroflicha o‘rganilgan. Xususan, modallikning predikativlik bilan bog‘liq jihatlari, obyektiv va subyektiv modallik masalalari V.V.Vinogradov, G. Kolshanskiy, N.E. Petrov, G.A. Zolotova, T.V. Shmeleva, T.V.Romanova, E.A. Popova, G.Y. Solganik, S.V. Kobyzeva, L.I. Bayditskaya, N.A. Saburova, V.V. Kazakovskaya kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan[3].

---

[2] Аристотель. Метафизика // Аристотель. Сочинения: в 4-х т. Т.1. – Москва.: Мысль, 1976. – С. 63-367.; Bally Charles. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – Москва: Изд-во иностранной литературы, 1955. – 416 с.; Palmer F.R. Mood and Modality. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 236 p.; Eisenberg Peter. Grundrisse der deutschen Grammatik. – Stuttgart: J.B. Metzlersche Verlagsbuchhandlung, 1989. – 516 s.; Boeschoten Hendrik. Modalität: Eine vernachlässigte Kategorie // Türkisch als Fremdsprache unter sprachwissenschaftlichen Gesichtspunkten. – Wiesbaden: Harrassowitz, 1994. – S. 35-48; Dietrich R. Modalität im Deutschen: zur Theorie der relativen Modalität. – Opladen: Westdeutscher Verlag, 1992. – 312 S.; Leiss Elisabeth. Explizite und implizite Kodierung von Deontizität und Epistemizität // Jezikoslovije. – 2002. – №3. – S. 41-60; Rentzsch Julian. Zur Modalität im Türkischen // Turcology in Mainz/Turkologie in Mainz. – Wiesbaden: Harrassowitz, 2010. – S. 215-230; Auwera Johan van der, Plungian Vladimir A. Modality’s semantic map // Linguistic Typology. – 1998. – Vol. 2. – №1. – P. 79-24.

[3] Виноградов В.В. О категории модальности и модальных словах в русском языке / В.В. Виноградов. – Москва: Просвещение, 1950. – 38 с.; Колшанский Г.В. К вопросу о содержании языковой категории модальности // Вопросы языкознания. – 1961. – №1. – С. 94-105.; Петров Н.Е. О содержании и объеме языковой модальности. – Новосибирск: Наука, 1982. – 161 с.; Золотова Г.А. Модальность в системе предикативных категорий // Otázky slovanské syntaxe. – Brno, 1962. – С. 65-79; Шмелева Т.В. Семантический синтаксис. – Красноярск: Изд-во Красноярского университета, 1988. – 54 с.; Романова Т.В. Модальность. Оценка. Эмоциональность. – Нижний Новгород: НГЛУ им. Н.А. Добролюбова, 2008. – 309 с.; Попова Е.А. Оценочная категоризация ментефактов в английском языке. – Воронеж: Научная книга, 2017. – 247 с.; Солганик Г.Я. О текстовой модальности как семантической основе текста // Структура и семантика художественного текста. – Москва: СпортАкадемПресс, 1999. – С. 120-131; Кобызева С.В. Аксиологическая модальность и специфика ее реализации в рекламном тексте // Вестник Челябинского государственного

O‘zbek tilshunosligida modallik kategoriyasining grammatik-semantik va kommunikativ jihatlari R.I.Ikramova, R.A.Kamildjanova, A.N.Nurmonov, J.A.Yoqubov, I.T.Hojaliyev, M.M. Jo‘rayeva, J.A.Yakubov, Sh.S.Safarov, D.S.Xudoyberganova kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan[4]. Mazkur ishlarda modallikning grammatik vositalari, modal so‘zlar, epistemik modallik, matn modalligi va lingvokognitiv xususiyatlari tahlil qilingan. Biroq o‘zbek tilida modallikni ifodalashning semantik-pragmatik asoslari, uning kommunikativ vaziyatdagi funksional xususiyatlari hamda badiiy, publitsistik va og‘zaki nutqdagi ifodalanishi kompleks tarzda monografik tadqiq etilmagan.

Dissertatsiyani yozish jarayonida modallik kategoriyasiga oid nomlari ko‘rsatilgan hamda boshqa qator o‘zbek va jahon tilshunoslarining ilmiy-nazariy qarashlari, semantik, pragmatik, kognitiv va kommunikativ yo‘nalishdagi tadqiqotlari atroflicha o‘rganildi. Tadqiqotimizda esa mavjud ishlardan farqli ravishda, o‘zbek tilida modallikni ifodalashning semantik-pragmatik asoslari tizimli ravishda tahlil qilinib, modallikning epistemik, deontik, volitiv va dinamik ko‘rinishlari, ularning kommunikativ nutqdagi funksional-pragmatik xususiyatlari hamda badiiy, publitsistik va og‘zaki nutqdagi ifodalanish usullari kompleks tarzda tadqiq etildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq “Til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi masalalari muammosi” mavzusidagi loyiha doirasida bajariladi.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilida modallikni ifodalovchi vositalarning semantik-pragmatik tabiatini tadqiq etish, ularning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari va funksional xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

modallik kategoriyasining lingvistik terminologik apparatini, tasnif tamoyillarini ilmiy asoslash hamda uning til tizimidagi o‘rnini nazariy jihatdan yoritish;

o‘zbek tilida modallikni ifodalovchi lisoniy vositalarning tizimini aniqlash, ularning qo‘llanish xususiyatlarini va nutqiy muloqotdagi funksional imkoniyatlarini tahlil qilish;

университета. – 2011. – №20. – С. 78-81; Байдицкая Л.И., Сабурова Н.А. Деонтическая модальность и лингвистические средства ее репрезентации в кодексе профессиональной этики // Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2015. – №5. – С. 19-25.

[4] Икрамова Р.И. Модальные формы имен существительных в современном узбекском языке. Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1967. – 22 с.; Камильджанова Р.А. Модальные слова в современном узбекском языке. Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 24 с.; Нурмонов А.Н. Танланган асарлар. 3 жилдлик. – Т.: Академнашр, 2012. – 812 б.; Ёқубов Ж.А. Лингвистикада модаллик категорияси // Филология масалалари. – 2003. – №3–4. – Б. 45-52; Ҳожалиев И.Т. Матншунослик курсида тасвир нутқини ўргатиш. – Фарғона, 2019. – 146 б.; Жўраева М.М. Француз ва ўзбек эртакларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий маданий хусусиятлари. Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 74 б.; Якубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланиш хусусиятлари: Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 46 б.; Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 286 б.; Худойберганова Д.С. Тил. Тафаккур. Маданият. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – 320 б.

modal ma’nolarning semantik va pragmatik xususiyatlarini nutqiy vaziyat bilan bog‘liq holda o‘rganish, subyektiv munosabat ifodalanish mexanizmlarini aniqlash;

baholash, ishonch, ehtimollik, majburiyat va istak kabi modal ma’nolarning ifodalanishida lisoniy va nolisoniy omillarning o‘rnini kontekstual-pragmalingvistik jihatdan yoritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tilida modallikni ifodalovchi modal so‘zlar hamda boshqa leksik va grammatik vositalar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti o‘zbek tilida modallik ma’nolarining turli kommunikativ vaziyat va diskurslarda namoyon bo‘lishining semantik-pragmatik xususiyatlari hamda subyektiv munosabat ifodasidagi lingvistik va ekstralingvistik omillardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada deskriptiv, semantik, komponent, qiyosiy-chog‘ishtirma, pragmalingvistik, diskursiv va statistik tahlil usullaridan, shuningdek, korpus materiallari asosida empirik tahlildan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

modallik kategoriyasi o‘zbek tilida semantik-pragmatik yondashuv asosida tizimli o‘rganilib, uning lingvistik terminologik apparati, tasnif tamoyillari *(epistemik, deontik, dinamik va volitiv modallik)*, shuningdek, til tizimidagi mavqeyi va funksional-struktur tarkibi, modallikning nutqdagi subyektivlikni ifodalashdagi ahamiyati nazariy jihatdan izohlangan;

o‘zbek tilida modallikni ifodalovchi lisoniy birliklar – modal so‘zlar *(ehtimol, balki, shubhasiz)*, modal yuklamalar *(-ku, -da)*, yordamchi fe’llar *(kerak, mumkin)* va modal konstruksiyalar misolida o‘rganilib, ularning matn turlarida *(badiiy, publitsistik, og‘zaki nutq)* qo‘llanish xususiyatlari faktik misollar asosida dalillangan;

modal ma’nolarning nutqiy vaziyat bilan bog‘liq semantik va pragmatik xususiyatlari misollar asosida *(ishonch/shubha: “keladi shekilli”, ehtimol: “balki u keldi”, majburiyat: “borish kerak”)* tahlil qilinib, so‘zlovchining baholash, ishonch, ehtimollik, majburiyat hamda istak kabi munosabatlarini ifodalashda lisoniy vositalar bilan birga matn, kommunikativ vaziyat hamda pragmatik maqsadning roli o‘zaro aloqasi aniqlangan;

o‘zbek tilida modallikni ifodalovchi lisoniy vositalar tizimi (modal so‘zlar, modal yuklamalar, yordamchi fe’llar, modal konstruksiyalar) nutqiy diskursda turli semantik-pragmatik vazifalarni bajarishi *(ehtimollik: balki, ehtimol, ishonch: shubhasiz, albatta, majburiyat: kerak, lozim*), ularning badiiy va publitsistik matnlarda so‘zlovchi munosabatini ifodalashdagi funksional imkoniyatlari, shuningdek, modal ma’nolarning baholash va ekspressivlikni kuchaytirishdagi roli misollar asosida *(keladi shekilli / borish kerak / albatta aytadi)* aniqlanib, lisoniy va nolisoniy omillar *(kontekst, kommunikativ vaziyat, pragmatik maqsad)* o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilida modallikni ifodalovchi lisoniy birliklarni (modal so‘zlar, modal yuklamalar, yordamchi fe’llar, modal konstruktsiyalar) aniqlash, tasniflash va

ularning semantik-pragmatik xususiyatlarini tahlil qilishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan;

modallik ma’nolarining (ishonch, shubha, ehtimollik, majburiyat, istak) nutqiy vaziyatda ifodalanish mexanizmlarini aniqlash, ularning badiiy, publitsistik va og‘zaki nutqdagi qo‘llanish darajasi hamda funksional imkoniyatlarini ochib berish usullari yoritilgan;

o‘zbek tilida modallik birliklarining kommunikativ-pragmatik tahlilini amalga oshirish, ularni kontekstual yondashuv asosida izohlash hamda subyektiv munosabat ifodasidagi o‘rnini belgilashga doir amaliy tavsiyalar ko‘rsatilgan;

modallik kategoriyasini o‘qitish va tahlil qilish jarayonida lingvistik materiallarni tizimlashtirish, nutqiy misollar asosida semantik-pragmatik tahlilni tashkil etish hamda ilmiy tadqiqotlarda qo‘llash bo‘yicha metodik asoslar ishlab chiqilgan;

modallik kategoriyasini o‘rganish natijalari o‘zbek tilshunosligida semantik-pragmatik yondashuvni rivojlantirish, nutq tahlili va kommunikativ tilshunoslik masalalarini hal etishda amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o‘zbek tilida modallik kategoriyasini semantik-pragmatik yondashuv asosida o‘rganish muammosining aniq qo‘yilganligi, ishning o‘rganilish darajasi va nazariy asoslari yetarlicha belgilanganligi, tahlil jarayonida jahon va o‘zbek tilshunosligida yaratilgan ishonchli ilmiy manbalardan foydalanilganligi, empirik material sifatida badiiy, publitsistik va og‘zaki nutq namunalarining jalb etilganligi, tadqiqotda qo‘llangan semantik-pragmatik, kontekstual tahlil hamda funksional yondashuv usullarining ilmiy asoslanganligi, olingan nazariy xulosa va natijalarning modallik kategoriyasini talqin etishda izchil va mantiqiy asosga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tilida modallik kategoriyasini semantik-pragmatik yondashuv asosida tadqiq etish, uning lingvistik tabiatini, tasnif tamoyillarini hamda epistemik, deontik va aksiologik qatlamlarining o‘zaro munosabatini yoritishga doir nazariy xulosalar bilan belgilanadi. Mazkur natijalardan modallikning nutqiy vaziyatda voqelanishi, subyektiv munosabat ifodalanishi va kommunikativ-pragmatik funksiyalarini o‘rganishga oid lingvistik tadqiqotlarda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda ishlab chiqilgan nazariy umumlashma va tahlillardan o‘zbek tilida modallik birliklarini o‘qitish, ularni nutqiy tahlil qilish, semantik-pragmatik izohlashga doir maxsus kurslar va seminar mashg‘ulotlarini tashkil etishda foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi. Shuningdek, mazkur natijalar badiiy, publitsistik va og‘zaki nutq materiallarini tahlil qilish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish hamda o‘zbek tilshunosligida pragmatik va funksional yo‘nalishdagi tadqiqotlarni takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tilida modallik kategoriyasini semantik-pragmatik yondashuv asosida o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

modallikning asosiy semantik turlari (epistemik, deontik, volitiv, dinamik)ning o‘zbek tilida namoyon bo‘lish mexanizmlari, ularning nutqiy vaziyat bilan bo‘liq holda turlicha ma’no qirralarini yuzaga chiqarishi kontektsual-semantik va pragmatik aspektda dallilanganligi, modal ma’nolarning shakllanishida lisoniy va nolisoniy omillarning (intonatsiya, kommunikativ vaziyat, nutq ishtirokchilari munosabati) o‘zaro ta’siri, ularning ma’noni kengaytirish yoki transformatsiya qilishdagi rolining ahamiyati bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosalardan 2024-2025-yillarda O‘zbekiston milliy universitetida bajarilgan IL-7823051524-sonli “Paratranslator: parallel korpusga asoslangan kontestologik elektron tarjima lug‘at platformasini yaratish” mavzusidagi loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston milliy universitetining 2026-yil 26-maydagi 04/11-12705-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda modallik kategoriyasining nazariy asoslarini anglash darajasi oshgan;

modallikning asosiy semantik turlari (epistemik, deontik, volitiv, dinamik)ning o‘zbek tilida namoyon bo‘lish mexanizmlari hamda ularning nutqiy vaziyat bilan bog‘liq holda turlicha ma’no qirralarini yuzaga chiqarishi kontekstual semantik va pragmatik aspektda dalillanganligi; o‘zbek tilida modallikni ifodalovchi vositalar (fe’l shakllari, modal so‘zlar, yuklamalar, intonatsiya va kontekstual vositalar)ning subyektiv munosabatni ifodalashdagi o‘rni, so‘zlovchining baholash, ishonch, ehtimollik, majburiyat va istak kabi munosabatlarini aks ettirishdagi funksiyasi pragmalingvistik jihatdan asoslab berilganligi; modal ma’nolarning shakllanishida lisoniy va nolisoniy omillarning (intonatsiya, kommunikativ vaziyat, nutq ishtirokchilari munosabati) o‘zaro ta’siri hamda ularning ma’noni kuchaytirish yoki transformatsiya qilishdagi roli nutqiy tahlil asosida ochib berilganligi haqidagi ilmiy xulosalaridan Farg‘ona davlat universitetida 2023-2025-yilda amalga oshirilgan ALM-202304076-05 sonli, “Milliy neyropsixolingvistik tashxislash metodikasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2026-yil 15-maydagi 04/5649-son ma’lumotnomasi). Natijada modallik birliklarini tahlil qilishning amaliy ko‘nikmalari shakllangan;

modallik ma’nolarning nutqiy vaziyat bilan bog‘liq semantik va pragmatik xususiyatlari misollar asosida (ishonch/shubha: “keladi shekilli”, ehtimol: “balki u keldi”, majburiyat: “borish kerak”) tahlil qilinib, so‘zlovchining baholash, ishonch, ehtimollik, majburiyat hamda istak kabi munosabatlarini ifodalashda lisoniy vositalar bilan birga matn, kommunikativ vaziyat hamda pragmatik maqsadning roli o‘zaro aloqasi dallillanganligi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlaridan 2025–2026-yillarda O‘zbekiston teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokanalining “Assalom Buxoro”, So‘z va adabiyot” teleko‘rsatuvlari, Buxoro radiosining “Xalqning ma’naviy boyliklari” radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokanalining 2026-yil 10-iyundagi 01-09-78-son ma’lumotnomasi).

Natijada mazkur teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning ta’sirchanlik funksiyasi ortgan, ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari bo‘yicha 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola (shu jumladan, 3 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi 126 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Modallikning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan tashkil topgan. Bobning *“Modallik tushunchasining lingvistik talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar”* deb nomlangan birinchi faslida tilshunoslik tarixiga nazar tashlangan va mavzu yuzasidan nazariy manbalar tahlil qilingan. Modallik tilshunoslikning eng murakkab va ko‘p qirrali kategoriyalaridan biri bo‘lib, u so‘zlovchining voqelikka, axborotga va nutq vaziyatiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Mazkur kategoriya tilshunoslik bilan bir qatorda mantiq, falsafa, pragmatika va kognitiv fanlar kesishgan nuqtada shakllangan kompleks hodisa hisoblanadi.

Modallik nazariyasining ilk asoslari Aristotel ta’limotiga borib taqaladi[5]. U modallikni zaruriyat, imkoniyat va voqelik kategoriyalari orqali izohlagan. Keyinchalik ushbu qarashlar tilshunoslikda obyektiv va subyektiv modallik tushunchalarining shakllanishiga zamin yaratdi.

XX asr tilshunosligida modallik masalasi V.V.Vinogradov, Sh. Balli, F.R.Palmer, G.A. Zolotova, T.V. Shmeleva, P. Ayzenberg, R. Ditrix, V.A.Plungyan, Y. van der Auwera[6] hamda o‘zbek tilshunosligida A. Nurmonov, J. Yoqubov, R.Ikramova va boshqa olimlar tomonidan turli jihatlardan tadqiq etildi[7].

[5] Malink, M. “Aristotle on Modality.” In: Modality: *A* History. Edited by Y. Y. Melamed, S. Newlands. – Oxford University Press, 2024. – P. 1-27. https://doi.org/10.1093/oso/9780190089856.003.0001

[6] Auwera, Johan van der & Plungian, Vladimir A. 1998. Modality‘s semantic map // Linguistic Typology 2, R. 79-124.

[7] Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – Toshkent : Akademnashr, 2012. I jild.; Yoqubov J. Lingvistikada modallik kategoriyasi // Filologiya masalalari. 2003. – № 3-4. – B. 54-56.; Икрамова Р. Модалные формы имен

Ushbu tadqiqotlarda modallik grammatik, semantik, pragmatik va kommunikativ kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Modallik muammosi lingvokognitiv va lingvomadaniy yo‘nalishlarda ham tadqiq etilgan bo‘lib, bu yo‘nalishda M.M. Jo‘rayeva va V.V. Kazakovskaya kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar[8].

Shuningdek, modallik faqat tilshunoslik doirasidagina emas, balki mantiq, falsafa va san’at sohalarida ham o‘rganilgan. Xususan, T.A. Selezneva va A.A. Myodova ishlarida lisoniy modallikning tarixiy shakllanishi, J.A. Yakubov tadqiqotlarida esa mazkur hodisaning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilingan. N.G. Dmitriyeva esa “neomodallik” atamasi asosida modallikning zamonaviy san’atshunoslikdagi namoyon bo‘lish shakllarini tadqiq etgan[9].

Zamonaviy tilshunoslikda modallik faqat grammatik hodisa emas, balki gap va matnning semantik-pragmatik tuzilishini shakllantiruvchi funksional kategoriya sifatida qaralmoqda. U fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalar orqali ifodalanib, so‘zlovchining ishonch, gumon, ehtimollik, zaruriyat, xohish va baholash kabi munosabatlarini aks ettiradi.

Tilshunoslikda modallikning obyektiv va subyektiv turlari farqlanadi. Obyektiv modallik gap mazmunining voqelikka munosabatini bildirsa, subyektiv modallik so‘zlovchining axborotga nisbatan bahosi, ishonchi, shubhasi yoki emotsional munosabatini ifodalaydi. Aynan subyektiv modallik pragmalingvistika va kommunikativ tilshunoslikning asosiy tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi.

Sh. Balli tomonidan ilgari surilgan diktum va modus nazariyasi modallikning zamonaviy talqinida muhim o‘rin egallaydi[10]. Diktum gapning obyektiv mazmunini, modus esa so‘zlovchining ushbu mazmunga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalaydi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda modus modallikning pragmatik va aksiologik ko‘rinishi sifatida baholanadi.

Kognitiv va pragmatik yondashuvlarning rivojlanishi natijasida modallik inson tafakkuri, nutqiy niyat va kommunikativ vaziyat bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Bugungi kunda modallik matnning kommunikativ maqsadini, muallif pozitsiyasini hamda diskursning pragmatik xususiyatlarini belgilovchi asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi.

существительных в современном узбекском языке: Автореф. дис.... канд.филол.наук. – Ташкент, 1967;Yakubov J.A. Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanish xususiyatlari: Filol. fanlari bo‘yicha fan doktori… diss. avtoref. – Toshkent 2006.

[8] Jo‘rayeva M.M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy madaniy xususiyatlari: Filol. fan. dokt. ...diss. avtoref. – T., 2017 – 87 b.; Казаковская В.В. Языковое и когнитивное в усвоении эпистемической модалности // МАПРЯЛ «Русская грамматика: описание, преподавание, тестирование» в Хелсинкском университете (Финляндия) июнь 2017. – С. 542-575. https://cyberleninka.ru/article/n/yazykovoe-i-kognitivnoe-v-usvoenii-epistemicheskoy-modalnosti

[9] Селезнева Т.А. К проблеме логико-философских истоков языковой модалности. – С. 225-227.; Мёдова А.А. К проблеме бытования понятия «модалност» в современном гуманитарном и философском знании. – С. 53-57. https://cyberleninka.ru/article/n/k-probleme-bytovaniya-ponyatiya-modalnost-v-sovremennom-gumanitarnom-i-filosofskom-znanii; Yakubov J.A. Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanish xususiyatlari: Filol. fanlari bo‘yicha fan doktori… diss. avtoref. – Toshkent, 2006.; Дмитриева Н.Г. Неомодалност в сочинениях отечественных композиторов последней трети XX века: Автореф. дис.... канд.филол.наук. – Москва, 2005. – 28 с.

[10] Балли Шарл. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – Москва, 1955. – С. 42.

Bobning ikkinchi fasli *“Modallikning asosiy semantik turlari (epistemik, deontik, dinamik va volitiv modallik) hamda uning pragmatik vazifalari*” deb nomlanadi. Mazkur faslda modallikning asosiy semantik turlari – epistemik, deontik, dinamik va volitiv modalliklarning nazariy asoslari hamda ularning pragmatik xususiyatlari yoritildi. Modallik so‘zlovchining voqelikka, axborotga va nutq vaziyatiga munosabatini ifodalovchi funksional-semantik kategoriya sifatida tavsiflanib, uning obyektiv va subyektiv ko‘rinishlari tahlil qilindi.

Epistemik modallik so‘zlovchining ishonch, shubha, taxmin va ehtimollik darajasini ifodalashi, deontik modallik esa majburiyat, ruxsat va taqiq ma’nolarini aks ettirishi ko‘rsatildi. Dinamik modallik subyektning ichki imkoniyati yoki qobiliyatini, volitiv modallik esa istak, niyat va xohish ma’nolarini ifodalashi misollar asosida izohlandi. Shuningdek, evidensial va emotiv modalliklarning modal ma’no tizimidagi o‘rni ham qisqacha tavsiflandi.

Tahlillar modallik voqelik, imkoniyat, zaruriyat, ehtimollik va ishonchlilik ma’nolarini hamda so‘zlovchining nutq mazmuniga subyektiv munosabatini ifodalovchi muhim kommunikativ-pragmatik kategoriya ekanini ko‘rsatdi. Zamonaviy tadqiqotlarda modallik semantik, pragmatik, diskursiv va korpus yondashuvlari asosida, evidensiallik, so‘zlovchi pozitsiyasi hamda diskurs strategiyalari bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qilinmoqda[11]. Xususan, Heiko Narrog modal ma’nolarning tarixiy-semantik taraqqiyotini hamda epistemik va deontik modallik o‘rtasidagi munosabatlarni izohlaydi[12]. So‘nggi yillardagi korpus lingvistikasi yo‘nalishidagi tadqiqotlar esa modal birliklarning qo‘llanish chastotasi, diskursdagi funksional yuklamasi va kontekstga bog‘liq semantik xususiyatlarini empirik ma’lumotlar asosida tavsiflash imkonini bermoqda. Mazkur tadqiqotda ham modallik aynan semantik-pragmatik va diskursiv yondashuvlar uyg‘unligida tahlil qilinadi.

Faslda modallikning pragmatik vazifalari alohida yoritilib, uning nutq aktlari, kommunikativ maqsad, diskurs, adresant va adresat munosabatlari hamda axborotning ishonchlilik darajasini ifodalashdagi o‘rni ko‘rsatildi. Shuningdek, modal birliklarning kommunikativ ta’sirni kuchaytirish, baholash, ishontirish va nutq strategiyalarini shakllantirishdagi funksiyalari ochib berildi.

Birinchi bobning uchinchi fasli “*O‘zbek tilshunosligida modallik masalalari bo‘yicha tadqiqotlar*” deb nomlanadi. O‘zbek tilshunosligida modallik va modal so‘zlar masalasi bugungi kunga qadar ko‘plab tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, 1957-yili Faxri Kamol tahriri ostida nashr qilingan “Hozirgi zamon o‘zbek tili”, 1975-yili nashrdan chiqarilgan “O‘zbek tili grammatikasi”ning morfologiya masalalariga bag‘ishlangan birinchi jildida va prof. A.G‘ulomov, M.Asqarovalar hamkorligida tomonidan yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” nomli darsliklarda modal so‘zlar grammatikada alohida mavzu sifatida ajratib o‘rganilganligi ko‘zga tashlanadi. Darsliklardan birida modal so‘zlar atamasiga

[11] Aijmer K. Modality and Mood in Functional Linguistic Approaches // The Oxford Handbook of Modality and Mood / Eds. J. Nuyts, J. van der Auwera. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – P. 495-513.

[12] Narrog H. The Expression of Non-Epistemic Modal Categories // The Oxford Handbook of Modality and Mood / Eds. J. Nuyts, J. van der Auwera. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – P. 145-169.

“so‘zlovchining o‘zi anglatayotgan fikrning aniqligiga, chinligiga ishonch darajasini ifodalash uchun xoslangan so‘z[13]” deb ta’rif berilgan.

O‘zbek tilshunosligida modallik kategoriyasi dastlab asosan gapning grammatik xususiyatlari doirasida o‘rganilgan bo‘lsa-da, keyingi tadqiqotlarda uning semantik, pragmatik va kognitiv jihatlari ham ilmiy tahlil obyektiga aylangan. Bu esa modallikning murakkab funksional-semantik hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

J.A.Yakubov, A.Nurmonov, Sh.S.Safarov, Z.M.Yigitaliyeva, D.B.Boymatova, I.S.Kaxarova, G.E.Umurzakova, M.O.Obilov, M.B.Mustafoyeva kabi olimlarning ilmiy qarashlari modallikning obyektiv va subyektiv turlarini farqlashda muhim nazariy asos bo‘ldi. Ayniqsa, subyektiv modallikning modus tushunchasi bilan bog‘lanishi va uning so‘zlovchi shaxsiy munosabati, bahosi hamda kommunikativ maqsadini ifodalashi o‘zbek pragmalingvistikasida yangi ilmiy yo‘nalishlarning shakllanishiga xizmat qildi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, diktum va modus munosabati modallikning semantik-pragmatik mohiyatini ochib beruvchi asosiy omillardan biridir. Diktum obyektiv voqelik haqidagi neytral axborotni ifodalasa, modus ushbu axborotga nisbatan so‘zlovchining taxmini, istagi, afsusi, ishonchi yoki bahosini aks ettiradi.

O‘zbek tilshunosligidagi zamonaviy qarashlar modallikni faqat grammatik kategoriya sifatida emas, balki inson tafakkuri, subyektiv bahosi va kommunikativ faoliyati bilan bog‘liq kognitiv-pragmatik hodisa sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa modallikni pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik va lingvoaksiologiya doirasida chuqurroq o‘rganish istiqbollarini belgilaydi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek tilida modallikning semantik xususiyatlari va pragmatik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobi uch faslni o‘z ichiga oladi. *“ Fe’l kategoriyalari va modallikning ifodalanishi”* deb nomlanadi. Mazkur faslda o‘zbek tilida modallikning fe’l kategoriyalari orqali ifodalanish mexanizmlari semantik va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, mayl, zamon, shaxs-son hamda modal birliklarning modallikni ifodalashdagi o‘rni yoritilib, ularning nutqdagi kommunikativ va diskursiv funksiyalari misollar asosida asoslab beriladi.

Aniqlanishicha, xabar mayli voqelikning realligini, shart mayli irreallik va ehtimollikni, buyruq–istak mayli buyruq, iltimos va undashni, maqsad mayli esa niyat va rejalashtirish ma’nolarini ifodalashda asosiy grammatik vosita hisoblanadi. Masalan, *“Agar bemalol bo‘lsa, o‘sha kishini chaqirib yuborsangiz”* gapida shart mayli iltimos va muloyimlik modalligini, *“Quloq sol, aytay”* misolida esa buyruq-istak mayli buyruq va kommunikativ hamkorlik ma’nolarini yuzaga chiqarishi tahlil qilindi.

Shuningdek, fe’lning zamon shakllari modallikni ifodalashdagi semantik va pragmatik imkoniyatlari jihatidan tahlil qilindi. Xususan, **-gan**, **-ibdi**, **ekan**, **emish** shakllari orqali nafaqat zamon, balki ishonch, gumon, evidensiallik va subyektiv baholash ma’nolari ham ifodalanishi asoslandi. Jumladan, *“Yo‘lning ikki tomoniga cho‘zilgan qir yonbag‘irlarini endigina yorib chiqayotgan o‘tlar qoplagan”*

[13] Ўзбек тили грамматикаси. II том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 61.

misolida **-gan** shakli harakat natijasining realligini va uning hozirgi holat bilan bog‘liqligini bildirsa, *“Qo‘chqor tuman markaziga ketganicha qaytib kelmabdi”* misolida **-ibdi** shakli bilvosita axborot va evidensial modallikni ifodalashi ko‘rsatildi. Tadqiqot natijasida o‘zbek tilida modallik grammatik, leksik va pragmatik vositalarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanuvchi integrativ lingvistik hodisa ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli *“Modallikning matndagi semantik ko‘pma’noliligi va uning nutqiy vaziyat bilan bog‘liqlik dinamikasi”* deb nomlangan bo‘lib, faslda modallik matnda voqelikka va ma’lum qilinayotgan axborotga nisbatan so‘zlovchining subyektiv munosabatlarini ifodalovchi ko‘pqatlamli semantik-pragmatik hodisa sifatida tahlil qilinadi. Modallikning semantik va pragmatik xususiyatlari nutqning turli janrlari hamda kommunikativ vaziyatlariga mos ravishda namoyon bo‘lishi, uning matnning semantik yaxlitligi va pragmatik ta’sirchanligini shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Deontik modallikning istak, mumkinlik va zaruriyat ma’nolari, shuningdek, taqiq va ijozat nutqiy harakatlari bilan bog‘liqligi misollar asosida tahlil qilinadi. O‘zbek tilshunosligida deontik modallikning semantik qatlamlari asosan istak, mumkinlik va zaruriyat kategoriyalari orqali ifodalanadi. Ushbu kategoriyalar so‘zlovchining xohish-istagi va mazkur istakning kelajakdagi harakatni amalga oshirishga qaratilganligini aks ettiradi. Masalan, Fariduddin Attorning *“Mantiq ut-tayr”* dostonidagi quyidagi parchalarda modallik shu yo‘sinda namoyon bo‘ladi:

1. “*Chun Sulaymon bir qancha riyozatlar chekib kamolga yetganida… uning oyog‘i ostida ojiz qolgan chumoliga bunday dedi… Agar meni tushungan bo‘lsang, fazling bilan men tomonga qarab, yuzimni ochib qo‘ygin*” (Attor, *Mantiq ut-tayr*).

2. “*Bandalik qil, bundan ortiqni da’vo qilma… Ey, xunasa, mardlar to‘nini yech, o‘zingni bundan ortiq sargardon qilma!”* (O‘zbek xalq ertaklari, To‘rt og‘ayni botirlar).

Bu misollarda so‘zlovchi kelajak harakatni bajarishga undaydi yoki belgilangan harakatdan saqlab qolishga qaratilgan istak-niyatni ifoda etadi. Shu bilan birga, so‘zlovchining ijtimoiy mavqeyi deontik modallikning amaliy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, *To‘rt og‘ayni botirlar* ertaklarida so‘zlovchining mavqeyi yuqori bo‘lgani tufayli deontik modallik nutqiy intensiyani amalga oshirishda adresatning harakatini nazorat qilish vositasi sifatida qo‘llanilgan.

Modallikning matndagi yana bir qirrasi – taqiq va ijozat nutqiy harakatlari bilan bog‘liqligi. Masalan, rasmiy xabarlarda va qonun hujjatlarida deontik modallik so‘zlovchining huquqiy va ijtimoiy mavqeyini namoyon qiladi hamda adresatning harakatini belgilash va nazorat qilishda faoliyat ko‘rsatadi. Bu holat deontik modallikning pragmatik va kommunikativ qirrasini ochib beradi[14] .

Ushbu faslda N. Eshonqulning “Ochilmagan eshik” asari misolida modallikning semantik ko‘pma’noliligi hamda uning nutqiy vaziyat, kontekst va

[14] Rentzsch Julian 2010. Zur Modalität im Türkischen. In: Boeschoten, Hendrik & Rentzsch, Julian (eds.). Turcology in Mainz/Turkologie in Mainz. (Turcologica 82.) – Wiesbaden: Harrassowitz, – P. 209-224.

qahramonlarning psixologik holati bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilinib, modal ma’nolarning badiiy matnda turli semantik-pragmatik vazifalarni bajarishi yoritildi.

1. Deontik va epistemik modallikning integratsiyasi. N. Eshonqulning *“Ochilmagan eshik”* asarida deontik va epistemik modallik bir-biri bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Masalan, “Kelinchak endi erining o‘zidan butkul sovib ketganligini angladi” jumlasidagi *angladi* birligi epistemik modallikni ifodalab, qahramonning voqelik haqidagi shaxsiy xulosasini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, erining xatti-harakatlari ijtimoiy-axloqiy me’yorlar asosida baholanib, deontik modallik ham yuzaga chiqadi.

2. Emotsional modallik va subyektiv baholash. Asarda qahramonning ichki kechinmalari emotsional modallik orqali ochiladi. *“Kelinchakning ko‘nglida rashk ham, qizg‘anish ham yo‘qolgan, aksincha, erining xatti-harakatlaridan g‘ashi kelardi”* misolida voqelik shaxsiy his-tuyg‘ular asosida baholanib, qahramonning psixologik holati hamda voqelikka munosabati namoyon bo‘ladi.

3. Aksiologik modallik va baholovchi munosabat. Asarda aksiologik modallik qahramonning voqelikka bergan subyektiv bahosi orqali ifodalanadi. *“...xuddi daryoning tubidan bir ko‘rinib o‘tgan kichkina baliqday...”* kabi qiyosiy va metaforik tasvirlar voqelikni emotsional, estetik hamda axloqiy nuqtayi nazardan baholashga xizmat qilib, modal ma’noni kuchaytiradi.

4. Semantik ko‘pma’nolilik va transpozitsiya. Modal ma’nolar kontekst ta’sirida turlicha talqin qilinadi. Qahramonning o‘zini boshqalar bilan qiyoslashi yoki o‘z holatiga bergan bahosi ayrim birliklarning ijobiy shaklda bo‘lsa-da, salbiy yoki tanqidiy mazmun kasb etishiga olib keladi. Bu esa modallikning semantik ko‘pma’noliligi va kontekstga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

5. Nutqiy vaziyat bilan bog‘liqlik dinamikasi. Modal ma’noning shakllanishi nutqiy vaziyat va qahramonning psixologik holati bilan uzviy bog‘liq. “*Endi foydasi yo‘q... Axir bir umr shunday o‘tolmaymiz-ku?”* jumlasida epistemik modallik (voqelikni anglash) hamda emotsional modallik (umidsizlik va ruhiy iztirob) birlashib, qahramonning kognitiv va kommunikativ holatini ochib beradi.

Tahlillar modallikning semantik ko‘pma’noliligi nutqiy vaziyat, kontekst, qahramonlarning ruhiy holati va kommunikativ maqsadiga qarab dinamik tarzda o‘zgarishini, badiiy matnda esa qahramonning ichki dunyosi, subyektiv munosabati va voqelikka bergan bahosini ochib beruvchi muhim semantik-pragmatik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchi bobning *“Nutqda modallik: subyektiv munosabat va intonatsiya”* deb nomlangan uchinchi faslida faslda modallikning nutqda subyektiv munosabatni ifodalashdagi semantik-pragmatik xususiyatlari hamda intonatsiyaning modal ma’nolarni yuzaga chiqarishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda obyektiv modallik gapning zaruriy semantik komponenti, subyektiv modallik esa so‘zlovchining shaxsiy pozitsiyasi, bahosi va emotsional munosabatini ifodalovchi qo‘shimcha ma’no qatlami sifatida tavsiflandi.

Sintaktik nuqtayi nazardan qaralganda, modallik mazmuni gapning asosiy tarkibiy qismlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lmay, nutqning kommunikativ-

pragmatik jarayonida shakllanadi. Obyektiv va subyektiv modallik nutqiy aktlarda hamda matnning yaxlit kompozitsiyasini tashkil etuvchi semantik-pragmatik elementlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois modal mazmunni faqat sintaktik vositalar orqali izohlash yetarli emas, chunki uning ifodalanishi so‘zlovchining subyektiv baholashi, kommunikativ maqsadi va voqelikka bo‘lgan munosabati bilan ham uzviy bog‘liqdir[15]. Masalan, T.Malikning asarlaridan olingan quyidagi misollar subyektning modal munosabatini ochib beradi:

“Baxtli bo‘lish uchun nima qilish kerak, bilmayman, har holda baxtni kutib uzoq yillar yashashim, kurashishim kerak”[16] .

“Ilm olishda diqqat qilish lozim bo‘lgan jihat: bu dunyoda bilmaslikdan emas, noto‘g‘ri bilishdan xazar qilmoq shart”[17] .

“Inson vayrona qalbini faqat muhabbat bilangina obod etmog‘i mumkin” [18].

Ushbu keltirilgan misollarda modal mazmun subyektning voqeaga munosabati va shaxsiy baho berishidan kelib chiqib shakllanadi. Ular faqat gapning sintaktik tuzilishi orqali emas, balki nutq konteksti va subyektiv fikr-tuyg‘u orqali ham aniqlanadi.

Faslda intonatsiya subyektiv modallikni ifodalovchi asosiy fonetik vosita sifatida baholanib, uning emotsional holat, iroda, baholash va kommunikativ maqsadni ifodalashdagi funksiyalari yoritildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, *“Yana nima bo‘ldi?”, “Ovqatni suzaver, kelin”, “Ketamiz, qizim... ketamiz”, “Gap-gap bilan-u, lekin baribir otaxonni shifoxonaga bir obormasangiz bo‘lmaydi”* kabi nutqiy birliklarda ohang, urg‘u, pauza va so‘z tartibi orqali iltimos, buyruq, tahdid, hayrat, ishonch va emotsional munosabat ifodalanadi. Natijada intonatsiya va so‘z tartibi modallikning semantik hamda pragmatik qatlamlarini faollashtirib, nutqning ta’sirchanligi va ekspressivligini ta’minlovchi muhim vositalar ekanligi aniqlandi.

O‘zbek tilida modallik fe’l kategoriyalari, modal so‘zlar, sintaktik qurilmalar va intonatsiya vositasida ifodalanadigan murakkab semantik-pragmatik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, mayl, zamon, shaxs-son va tasdiq-inkor shakllari modallikning grammatik asosini tashkil etib, so‘zlovchining voqelikka bo‘lgan subyektiv munosabatini ifodalashda muhim vosita vazifasini bajaradi.

Tadqiqot davomida o‘tgan va hozirgi zamon fe’l shakllari modallikning turli qatlamlarini yuzaga chiqarishi aniqlandi. **-gan, -ibdi, ekan, emish** kabi shakllar epistemik modallik, gumon, evdensiallik va subyektiv bahoni ifodalasa, hozirgi zamon shakllari real voqelik, odatiylik, ehtimollik hamda emotsional munosabatni aks ettirish imkoniyatiga ega ekanligi kuzatildi. Intonatsiya va so‘z tartibi subyektiv modallikni yuzaga chiqaruvchi muhim fonetik va sintaktik vositalar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ovoz balandligi, pauza, urg‘u, ohang va so‘zlarning joylashuvi orqali so‘zlovchining hissiyoti, ishonchi, tahdidi, iltimosi

